

**XO‘RAKI KO‘K NO‘XAT NAV VA NA‘MUNALARIDAN
KASALLIKLARGA CHIDAMLI ENG YAXSHI BOSHLANG‘ICH
MATERIALNI TANLASH (SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA)**

G‘.S. G‘aybullayev

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filali

q/x.f.d.

M.F. Abdurashidova

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filali

magistr

www.mohigul3305.@gmail.com

ANNOTATSIYA

Aholi soninig oshib borishi yanada ko‘proq ehtiyojning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu esa dukkakli don ekinlariga xususan ko‘k no‘xatga bo‘lgan talabni ham oshishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqolada Samarqand viloyati sharoitida xo‘raki ko‘k no‘xatning nav na'munalaridan eng yaxshi boshlang‘ich materiallarni tanlab olish uchun olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xo‘raki ko‘k no‘xat, nav, na‘muna, boshlang‘ich material, o‘suv davri, kasalliklarga chidamlilik, askoxitoz.

Abstract. The increase in the number of the population causes the emergence of even more needs. This causes an increase in demand for legumes, especially green peas. In this article, the results of the research conducted to select the best starting materials from the variety samples of green peas in the conditions of Samarkand region are highlighted.

Key words: blue pea, variety, sample, starting material, growth period, resistance to diseases, ascochytoz.

Резюме. Увеличение численности населения вызывает появление еще большего количества потребностей. Это вызывает увеличение спроса на бобовые, особенно на зеленый горошек. В данной статье освещены результаты исследований, проведенных по отбору лучших исходных материалов из сортообразцов зеленого горошка в условиях Самаркандской области.

Ключевые слова: горошек голубой, сорт, образец, исходный материал, вегетационный период, устойчивость к болезням, аскохитоз.

Respublikamizda ko‘k no‘xatning hosildorligi yuqori navlarini yaratishga yetarlicha e’tibor berilmagan. Respublika aholisini oqsiliga bo‘lgan ehtiyojni qondirishda albatta hosildorligi yuqori navlarni tanlab olishimiz dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Samarqand viloyati sharoitida xo‘raki ko‘k no‘xatning nav va na‘munalari ustida bir nechta tadqiqotlar o‘tkazdik. Tadqiqot ishlari Jomboy tumanida joylashgan “Farboma selekt” urug‘chilik ilmiy fermer xo‘jaligida olib borildi

Tadqiqot qo‘yishimizdan maqsad: Samarqand viloyati sharoitida ko‘k no‘xatning kasalliklarga chidamli va sifatli hosildorlikka ega bo‘lgan namunalarni tanlash hisoblanadi

Tadqiqotning vazifalari: Xo‘raki ko‘k no‘xat navlarining jahon kolleksiyasi nav namunalaridan kasalliklarga chidamli va qimmatli xo‘jalik-biologik xususiyatlarga ega nav namunalaridan seleksiya uchun dastlabki ashyo sifatida foydalanish;

Kasalliklarga chidamliligi.

Xo‘raki ko‘k no‘xat hosiliga asosan zang, ildiz bakteriozi, fuzarioz so‘lish kasalligi, askoxitoz, antraknoz, yolg‘on un shudring, chirish kasalliklari, yasmiq donxo‘ri, loviya donxo‘ri, uzun tumshuq qo‘ng‘izlar, shira, 5 nuqtali uzun tumshuq qo‘ng‘iz va boshqa xasharotlar ko‘proq zarar yetkazadi. Ularning kasalliklariga qarshi kurashda asosan almashlab ekish tizimiga, urug‘larni ekish muddatlari va qatqaloqqa qarshi kurash, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlardan foydalanish, kaliyli o‘g‘itlardan unumli foydalanishga, begona o‘tlarga qarshi kurash va azotli o‘g‘itlarni

yuqori miqdorlarda berilmasligiga e'tibor qaratish lozim. Yashil no'xatning zararkunandalariga qarshi kurashda esa urug'larni ekishdan oldin dorilash, biologik kurash choralarini amalga oshirish, dala atrofidagi begona o't va hasharotlar qishlaydigan joylarni tozalash va o'sish davrida profilaktika choralarini amalga oshirishga qaratish lozim.

Tajribada o'rganilgan nav namunalarning kasalliklarga chidamliligini baholash halqaro ICARDA Markazida (International Centr for Agricultural Research in the Dry Areas

Ko'k no'xatning Askoxitoz kasalliklarga chidamliligi bo'yicha tanlab olingan nav va namunalar (2021 yil)

T.r	Nav va namunalar nomi	Askoxitoz
1	Osiyo 2001(st)	9
2	Uzbekiston 2011	9
3	Vostok 55	9
4	Vostok 84	9
5	1904x3545	9
6	1904x2956	9
7	Bio 520x346	7
8	Proteek x IGC 96344	9
9	Proteek x IGC 23654	7
10	Rotanx 1236	7
11	Proteek x IGC 23578	7
12	Rotanx 2125	7
13	Jobbuleh	5
14	Proteek x 135486	7
15	Proteek x 288	7
16	Jasur-98	9

Tajriba natijalariga ko‘ra 2021 yilda ko‘k no‘xat kolliksiyalarini o‘rganish Askoxitoz kasallikgiga bardoshli ekanligi kuzatildi va ularning zararlanish darajasi 5-20 % bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. R.O. Oripov, N.X. Xalilov, O‘simlikshunoslik. Darslik. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2007.
2. D.T. Abdulkarimov, “Qishloq xo‘jalik ekinlari seleksiyasi va urug‘chilgi” Toshkent-2002.